

TEMURIYLAR DAVRI MANBALARIDA PIRMUHAMMAD MIRZO SIYMOSI

Abdug‘ofurova Robiya Xusanboy qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: 1abdugofurovarobiya@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19454073>

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada Temuriylar davri yozma manbalari asosida Pirmuhammad Mirzo siymosi, uning siyosiy va harbiy faoliyati hamda temuriylar ichidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, uning faoliyati Sharafiddin Ali Yazdiy va Abdurazzoq Samarqandiy kabi mualliflar asarlari asosida yoritilib, tarixiy voqealar bilan bog‘liq holda baholanadi.*

***Kalit so‘zlar:** Pirmuhammad Mirzo, Temuriylar davri, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, taxt uchun kurash, tarixiy manbalar, temuriy shahzodalar.*

***Аннотация:** В данной статье на основе письменных источников эпохи Тимуридов анализируются личность Пирмухаммада Мирзо, его политическая и военная деятельность, а также его место среди тимуридских князей. Кроме того, деятельность шахзода освещается на основе трудов Sharafiddin Ali Yazdiy и Abdurazzoq Samarqandiy и оценивается в контексте исторических событий. В статье раскрываются военные походы Пирмухаммада Мирзо, его участие в борьбе за престол и роль в политической жизни государства Тимуридов на основе исторических источников.*

***Ключевые слова:** Пирмухаммад Мирзо, эпоха Тимуридов, Шарафиддин Али Язди, Абдураззак Самарканди, борьба за престол, исторические источники, тимуридские князья, политическая деятельность, военные походы.*

***Annotation:** This article analyzes the figure of Pirmuhammad Mirza, his political and military activities, and his position among the Timurid princes based on written sources of the Timurid period. In addition, his activities are examined on the basis of the works of Sharafiddin Ali Yazdiy and Abdurazzoq Samarqandiy, and evaluated in connection with historical events. The paper reveals Pirmuhammad Mirza’s military campaigns, his participation in struggles for the throne, and his role in the political life of the Timurid state using primary historical sources.*

***Key words:** Pirmuhammad Mirza, Timurid period, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, struggle for the throne, historical sources, Timurid princes, political activity, military campaigns.*

“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)

Kirish. Temuriylar davri Markaziy Osiyo va unga tutash hududlar tarixida siyosiy, harbiy hamda madaniy taraqqiyot bilan ajralib turadi. Bu davrni o’rganishda temuriy shahzodalar faoliyati, ularning davlat boshqaruvidagi o’rni hamda o’zaro siyosiy munosabatlari alohida ahamiyatga ega. Amir Temur vafotidan so’ng temuriylar o’rtasida yuzaga kelgan taxt uchun kurashlar davlat siyosiy hayotiga sezilarli ta’sir ko’rsatgan. Ana shunday murakkab jarayonlarda faol ishtirok etgan shahzodalardan biri Pir Muhammad Mirzo hisoblanadi.

Pir Muhammad Mirzo Umarshayx Mirzoning o’g’li bo’lib, 1379-yilda tug’ilgan. Otasi vafotidan so’ng Fors viloyati unga topshiriladi va u Sheroz markaz qilib hokimlikni boshlaydi. Shu sababli manbalarda u Pir Muhammad Mirzo Sheroziy nomi bilan ham tilga olinadi. Yosh bo’lishiga qaramay, u aql-zakovati, siyosiy masalalarga ehtiyotkor yondashuvi va tadbirkorligi bilan ajralib turgan.

Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida Pir Muhammad Mirzo Amir Temur yurishlarida faol qatnashgan shahzodalardan biri sifatida tilga olinadi. Jumladan, Safid qal’asining zabt etilishida u Shohrux Mirzo bilan birga hujumni boshqarib, qal’ani egallashda muhim rol o’ynagan. Bu voqea uning harbiy tajribasi va qo’shin boshqarish qobiliyatini ko’rsatadi.

Shoh Mansurga qarshi jangda ham Amir Temur qo’shinining o’ng qanoti Pir Muhammad Mirzo ixtiyoriga topshiriladi. U jang davomida dushman qo’shinining chap qanotiga kuchli zarba berib, ularning safini buzadi. Bu esa umumiy g’alabani ta’minlashda muhim omil bo’ladi.

Manbalarda Pir Muhammad Mirzo Fors hududida siyosiy barqarorlikni ta’minlashda ham faol ishtirok etgani qayd etiladi. Yazd viloyatida yuzaga kelgan tartibsizliklarni bostirish uchun u Sherozda qo’shin to’plab, harbiy yurish uyushtiradi va viloyatda tartibni tiklaydi. Bu uning nafaqat harbiy, balki ma’muriy boshqaruvdagi salohiyatini ham ko’rsatadi.

Amir Temur vafot etgan paytda Pir Muhammad Mirzo Qandahorda edi. Sohibqiron uni valiahd sifatida belgilagan bo’lsa-da, bu xabar yetib kelguncha Samarqand taxtini Xalil Sulton egallaydi. Natijada temuriy shahzodalar o’rtasida taxt uchun kurash boshlanadi.

Pir Muhammad Mirzo Samarqand taxtini egallash maqsadida Movarounnahr tomon yo’lga chiqadi. U Shohrux Mirzo bilan ittifoq tuzib, Xalil Sultonga qarshi kurashadi. Qarshi yaqinida bo’lib o’tgan jangda dastlab ustunlik Pir Muhammad tomonida bo’lsa-da, ayrim amirlarning xiyonati sababli u mag’lubiyatga uchraydi. Shundan so’ng Balx tomon chekinadi.

Pir Muhammad Mirzo Fors hududida hokimlikni mustahkamlashga harakat qiladi. U ukalari bilan murakkab siyosiy munosabatlar olib boradi, ayrim hollarda ular bilan ittifoq tuzadi, ayrim paytlarda esa qarama-qarshilik yuzaga keladi. Rustam Mirzo va Iskandar Mirzo bilan bo’lgan harbiy to’qnashuvlar ham shu davrga to’g’ri keladi.

“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)

Pir Muhammad Mirzo Isfahonni egallaganidan so‘ng shahar aholisiga zarar yetkazmaydi, faqat o‘ziga qarshi chiqqan amirlarni jazolaydi. Bu esa uning siyosiy ehtiyotkorligi va boshqaruvdagi muvozanatni saqlashga intilganini ko‘rsatadi.

1410-yilda Pir Muhammad Mirzo Kirmon viloyatini egallash maqsadida yurish boshlaydi. Duchoha mavzeida qo‘shin to‘xtagan paytda uning yaqin amirlaridan biri — Xoja Husayn Sharbatdor fitna uyushtirib, shahzodani chodirida o‘ldiradi. Shu tariqa Pir Muhammad Mirzo 31 yoshida vafot etadi.

Tarixiy manbalarda Pir Muhammad Mirzoning yetti o‘g‘li qayd etiladi: Qaydu Mirzo, Holid Mirzo, Sa’d Vaqqos Mirzo, Qaysar Mirzo, Buzanjar Mirzo, Jahongir Mirzo, Sanjar Mirzo, Shuningdek, ayrim manbalarda undan ikki o‘g‘il — Umar Shayx Mirzo va Solih Mirzo ham qolganligi qayd etiladi.

Xulosa. Pir Muhammad Mirzo Temuriylar davrida muhim harbiy-siyosiy arbob sifatida maydonga chiqqan shahzodalardan biri hisoblanadi. U Amir Temur yurishlarida faol qatnashib, mustaqil harbiy qo‘mondon sifatida shakllangan. Amir Temur vafotidan keyingi taxt uchun kurashlarda ham u asosiy da’vogarlardan biri bo‘lgan. Fors hududidagi faoliyati, siyosiy muvozanatni saqlashga intilishi hamda harbiy yurishlari uning temuriy shahzodalar orasida muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T.: Sharq, 1997.
2. Abdurazzoq Samarqandiy. Matla us-sa’dayn va majma’ ul-bahrayn.